

UDK: 632.4:634.2

## SHAFTOLI NAVLARIDA KLYASTEROSPORIOZ KASALLIGINING ZARARI

Azamov Akbarxon Axmatxonovich, Sattarov Qudrat Norqul o'g'li

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

**Annotation.** The fungus *Stigmina carpophila* (synonym *Clasterosporium carpophilum*) causes clusterosporium leaf spot of fruit trees. *S. carpophila* causes pinpoint spots on leaves in spring and early summer. It can damage 40-50% of plants. The article provides information on the development and harmfulness of the clusterosporium disease of peach varieties.

**Keywords:** peach, clusterosporium, *Clasterosporium carpophilum*, tulip, samantha, diablotina, light dream, hilol.

Mamlakatimida shaftoli bog'lari yildan-yilga kengayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida shaftoli bog'larda uchraydigan barg bujmayishi, klyasterosporioz, monilioz, un shudring va boshqa kasalliklar keng tarqalishi, hosildorlikka katta zarar yetkazishi hamda meva yetishtirishda bir qancha muammolar kelib chiqarmoqda. Shaftoli bog'larida bu kasalliklar ko'payishining asosiy sababi iqlim sharotining o'zgarib borishi va eski bog'lar rekonstruksiya qilinmaganligi agrotexnik kurash choralari esa to'g'ri bajarilmaganligidir.

Shaftoli daraxti barglaridagi dog'lar klasterosporoz kasalligini boshqa kasalliklardan muhim farqlovchi belgisidir. Zararlangan kurtaklar yopishqoq saqich chiqaradi, so'ngra och sariq yoki jigarrang rangli shishasimon massa shaklida qattiqlashadi [1].

Klyasterosporioz kasalligi daraxtlarning zaiflashishiga va hosilning pasayishiga olib keladi. Mevalar va barglarning shakli o'zgarib to'kilishi mumkin. Hosildorlikni va tashqi faktorlarga qarshilikni sezilarli darajada kamaytiradi [2].

*Clasterosporium* infeksiyasi Krasnodar o'lkasida keng tarqalgan va zarari yuqori bo'lgan barglarni 40-55% zararlasa gullarini 60-80% ni to'kilishiga olib kelagan [4].

Klasterosporoz bu hosilning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini kamaytiradigan zararli kasallik bo'lib. Danak mevali ekinlarni zararlanishi 30% dan oshib ketishi mumkin. Ayrim yillari mevalarni 60% gacha zararlagan [3].

Rossiyaning janubiy hududlarida shaftolining Balkarskaya, Milena, Podruga, Predgornaya, Prikubanskaya va Charodeyka navlari klyasterosporioz kasalligiga chidamlilikni namoyon etgan. Klasterosporioz kasalligi Qora dengiz sohili Kavkaz mintaqasi shaftoli bog'larida barglarning 90% gacha zararlanishiga va barglarning erta to'kilishiga olib keladi [2].

**Tadqiqot usullari.** Shaftoli bog'larini klyasterosporioz kasalligi bilan zararlanishi Chumakov va boshqalar uslublari asosida 5 tadan daraxtlarda quyidagi shkala asosida aniqlandi.

0 ball – tashqi belgilar yo'q;

0,1 ball – 1% gacha zararlangan barglar (meva, novda) ustida 1-2 ta mayda dog'lar paydo bo'lgan;


1 ball – 1-10% gacha zararlangan barglar (meva, novda) ustida 3-5 ta mayda yoki 1-2 ta katta dog'lar paydo bo'lgan;

2 ball – 11-25% gacha zararlangan barglar (meva, novda) ustida 5-8 tagacha mayda yoki 1-2 ta katta dog'lar paydo bo'lgan, 1/10 yuza qismi zararlangan;

3 ball – 26-50% gacha zararlangan barglar (meva, novda) ustida 10 tagacha mayda yoki 5 ta katta dog'lar paydo bo'lgan, ¼ yuza qismi zararlangan;

4 ball – 50% dan yuqori zararlangan barglar (meva, novda) ustida ko'p dog'lar bir-biriga qo'shilib ketgan, ½ yuza qismi zararlangan.

**Tadqiqot natijalari.** Shaftoli kasalliklarini o'rganishda yekilgan navlarning kasalliklarga chidamliligini o'rganish ham muxim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsatda 2021-2023 yillarda shaftoli navlarining klyasterosporioz kasalligiga chidamliligi o'rganildi (1 – rasm).



**1-rasm. Shaftoli navlarning klyasterosporioz kasalligi bilan zararlanishi.**

Olib borilgan kuzatuvlarga ko‘ra, shaftolining Diablotina va Svet drem navlari klyasterosporioz kasalligiga qolgan navlarga nisbatan chidamli bo‘lib, zararlanish barglarda 21,4% dan 24,2% gacha va mevalarda 19,8% dan 23,7% gachani tashkil etgan bo‘lsa, kasallikning rivojlanishi esa barglarda 10,1% dan 11,5% gacha va mevalarda 8,6% dan 11,9% gacha yetishi kuzatildi.

Lola va Samanta navlari klyasterosporioz kasalligiga o‘rtacha chidamli nav bo‘lib, zararlanish barglarda 24,3% dan 28,6% gacha, mevalarda esa 21,6% dan 24,5% gachani tashkil etdi. Kasallik rivojlanishi mos ravishda barglarda 11,7% dan 14,8% gacha, mevalarda esa 9,4% dan 13,4% gacha yetdi.

Xilola navi klyasterosporioz kasalligiga qolgan navlarga nisbatan chidamsiz bo‘lib, zararlanish barglarda 27,8% dan 31,3% gacha, mevalarda esa 24,2% dan 26,8% gachani tashkil etdi. Kasallik rivojlanishi mos ravishda barglarda 12,5% dan 15,8% gacha, mevalarda esa 10,5% dan 12,9% gacha yetdi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki klyasterosporioz kasalligiga chidamli navlar Diablotina va Svet drem navlari ekanligi aniqlandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ким А.В. Устойчивость сортов косточковых пород к основным заболеваниям / А.В. Ким // В сб. матер, коорд. совещ. селекционеров-садоводов и виноградарей - Краснодар, 2002. – С. 141-142.

2. Леонов, Н.Н. Курчавост листьев персика и совершенствование её контроля в зоне влажных субтропиков России: автореферы: Дис ... канд. с.-х. наук: 06.01.07 / Леонов Николай Николаевич. – Краснодар, 2010. – 22 с.

3. Магер М.К., Сергеев Г.Я., Хрюкина Е.И., Гузь А.Л., Магер В.М. Комплексная защита сливы и персика от вредных организмов Июнь 2023. – С. 22-27.

4. Смагин Н.Е. Подбор сортов персика для субтропиков России // Субтропическое и декоративное садоводство. – России, 2012. - Вып. 47. - С. 77-83.

5. Чумаков А.Е., Минкевич И.И., Власов Ю.И., Гаврилова Е.А. Основные методы фитопатологических исследований // Научные труды ВАСХНИЛ.-Москва: «Колос», 1974. 57 с.

6. (<https://karantin.net/klyasterosporioz-persika>)